

**BOLALARNI “PETYA VA BO’RI” ASARI ORQALI MUSIQAGA QIZIQISHINI
SHAKLLANTIRISH****ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕРЕСА ДЕТЕЙ К МУЗЫКЕ ЧЕРЕЗ СПЕКТАКЛЬ «ПЕТЯ
И ВОЛК»****FORMING CHILDREN'S INTEREST IN MUSIC THROUGH THE WORK "PETYA
AND THE WOLF"****R.Odilova****Qo'qon davlat universiteti 1-bosqich talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15697601>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada rus bastakori Sergey Prokofyevning mashhur simfonik ertagi “Petya va Bo’ri” orqali bolalarning musiqaga bo’lgan qiziqishini oshirish, ularning estetik didi va tinglash madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Asar orqali kichik yoshdagi o’quvchilarda musiqiy obrazlarni eshitish, farqlash, his qilish ko’nikmalari shakllanadi.

Kalit so’zlar: bolalar musiqasi, musiqiy ertak, obraz, kompazitor, estetik tarbiya, musiqaga qiziqish, nota, dinamika, obraz, harakter.

Аннотация: В статье анализируются возможности повышения интереса детей к музыке, развития их эстетического вкуса и культуры слуха через известную симфоническую сказку «Петя и волк» русского композитора Сергея Прокофьева. Работа развивает у младших школьников навыки слуха, различения и ощущения музыкальных образов.

Ключевые слова: детская музыка, музыкальная сказка, образ, композитор, эстетическое воспитание, интерес к музыке, нота, динамика, образ, персонаж.

Annotation: This article analyzes the possibilities of increasing children's interest in music, developing their aesthetic taste and listening culture through the famous symphonic fairy tale "Petya and the Wolf" by Russian composer Sergei Prokofiev. Through the work, the skills of hearing, distinguishing, and feeling musical images are formed in young students.

Keywords: children's music, musical fairy tale, image, composer, aesthetic education, interest in music, note, dynamics, image, character.

KIRISH

“Petya va Bo’ri” asari 1936-yil aprel oyida **Sergey Prokofyev** tomonidan yozilgan. U Moskvada joylashgan **Markaziy bolalar teatrining** buyrug’i bilan, bolalar uchun yozilgan musiqiy ertak sifatida yaratilgan. Asarning ilk premyerasi esa **1936-yil 2-may kuni** bo’lib o’tgan. Prokofyev bu asarni yozishga atigi bir necha kun sarflagan, chunki u bolalarga **cholg’u asboblarini tanitish va musiqiy obrazlarni eshitish orqali tushuntirish** maqsadini ko’zlagan. Bu asar nafaqat o’z davrida, balki hozirgacha butun dunyo bo’ylab bolalar musiqiy tarbiyasida keng foydalanib kelinadi. Kichik yoshdagi bolalarda musiqa san’atiga qiziqishni shakllantirish uchun ularning dunyoqarashiga mos, obrazli va esda qoladigan asarlardan foydalanish ta’limda samarali usullardan biridir. Shu jihatdan, Sergey Prokofyevning “Petya va Bo’ri” asari – musiqiy ertak janridagi noyob namunadir. Unda har bir personajga alohida cholg’u asbobi orqali xarakter berilgan bo’lib, bu bolalarda musiqiy eshituv, obrazlarni tanib olish va his etish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Asarning tarbiyaviy va musiqiy ahamiyati shundaki “Petya va Bo’ri” — bu bolalar uchun yozilgan simfonik ertak bo’lib, unda hikoya musiqiy vositalar orqali jonlantiriladi. Har bir qahramon quyidagi cholg’u asboblari bilan ifodalangan:

- **Petya** – skripkalar orqali (jasorat va faoliyat timsoli),
- **Bo’ri** – valtorna (xavf va kuchli kuch timsoli),
- **Quyvon** – fleyta (engil va qo’rqoq xarakter),
- **Qush** – piccolo (serharakat va chaqqon obraz),
- **Bobosi** – fagot (katta avlod, salobat),
- **Ovchilar** – zarbli cholg’ular (harakat va kuch).

Bu musiqiy personifikatsiya bolalarga musiqani nafaqat eshitish, balki uni tushunish, his qilish va voqeani tasavvurda jonlantirish imkonini beradi.

Musiqqa orqali qiziqishni shakllantirish metodikasi jarayonida pedagog quyidagi yondashuvlar orqali bolalarda musiqaga qiziqishni samarali shakllantirishi mumkin:

- Asarni eshittirishdan avval obrazlar bilan tanishtirish, ular qanday xarakterda ekanini muhokama qilish;
- Eshitish chog’ida har bir cholg’u asbobining qanday ovoz chiqarishini tushuntirish;
- Musiqqa eshitilgach, bolalardan “Qaysi cholg’u nima dedi?” yoki “Bo’rining ovozi qanday eshitildi?” kabi savollar berish;
- Rasm chizish yoki pantomima orqali musiqiy obrazni ifodalashga undash;
- Asarning qismlarini jonli ijro (yoki audio) orqali tinglatib, musiqiy tafakkurni rivojlantirish.

Eshitish madaniyati va estetik tarbiya jarayonida bolalar asarni tinglagan sari:

- musiqqa orqali hikoya tushunish ko’nikmasi hosil qiladi,
- obrazlar orqali xarakterlarni tahlil qiladi,
- musiqaga diqqat bilan quloq solishga o’rganadi,
- estetik zavq oladi va musiqqa orqali hissiy dunyosi boyiydi.

Bu esa ularning keyingi bosqichdagi musiqiy ta’limga tayyorlanishida, kasbiy san’atga bo’lgan intilishida muhim bosqich bo’lib xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqotlar natijalari shuni ko’rsatmoqdaki, musiqiy ertak janridan foydalanish, ayniqsa, “Petya va Bo’ri” kabi kompozitsiyalarning dars jarayonida qo’llanilishi bolalarda musiqaga bo’lgan tabiiy qiziqishni kuchaytiradi. Sergey Prokofyev tomonidan yaratilgan bu asarda musiqaning o’ziga xos vositalari — tembr, ritm, dinamika va melodiya orqali xarakterlar yaratilib, ular bolalarga tushunarli va esda qolarli tarzda yetkaziladi. Muhokamalar davomida aniqlanishicha, asardagi har bir obrazning maxsus cholg’u asboblari bilan ifodalanishi (masalan, qush — piccolo, bo’ri — valtorna, Petya — skripkalar orqali) bolalarda eshitish va tasavvur qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi. Bu holat musiqani passiv tinglashdan faol tahlil qilish darajasiga olib chiqadi. Bolalar obrazni faqat ko’rmay, balki eshitadi, his qiladi va unga estetik baho bera boshlaydi. Mashg’ulotlarda “Petya va Bo’ri” asari asosida olib borilgan faoliyatlarda o’quvchilar:

- musiqiy obrazlarni tinglash va farqlashga o’rgandi;
- cholg’u asboblarining tovush tembrini aniqlashda faol ishtirok etdi;
- musiqiy hikoya asosida mustaqil fikr va xulosa chiqarishni mashq qildi;
- musiqiy tajriba orqali san’atga yaqinlashdi.

Shuningdek, darsda ishlatilgan vizual (rasmlar, sahna harakati) va audial (yorqin ovozlari, cholg'ular tembrlari) materiallar bolalarning diqqatini o'ziga tortdi, ular darsda faolroq ishtirok etdi, bu esa ta'lim sifati oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu asosda aytish mumkinki, "Petya va Bo'ri" musiqiy ertagi: bolalarda musiqiy eshituv madaniyatini shakllantirishda, obrazlar orqali musiqiy tafakkurni rivojlantirishda, o'z fikrini san'at orqali ifodalashga o'rgatishda, kasbiy va ijodiy yo'nalishdagi qiziqishni uyg'otishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, "Petya va Bo'ri" kabi musiqiy ertaklar orqali bolalarda musiqa san'atiga qiziqishni shakllantirish jarayonida musiqa o'qituvchisining roli beqiyos ekani yaqqol ko'zga tashlanadi. O'qituvchi nafaqat asarni eshittiruvchi, balki har bir musiqiy obrazni tushunarli tilda talqin qiluvchi, musiqani his qilishga o'rgatuvchi, eng asosiysi — o'quvchilarning estetik didini shakllantiruvchi sifatida faoliyat olib boradi. Bu jarayonda musiqa o'qituvchisining quyidagi asosiy vazifalari ajralib turadi:

1. **Musiqiy eshituv madaniyatini shakllantirish** – bolalarni musiqa tinglash, ajratish va obrazlar asosida anglashga yo'naltirish.
2. **Obrazli fikrlashni rivojlantirish** – har bir cholg'u ovozinin xarakterga mosligini tushuntirish orqali bolalarda musiqiy tasavvurni kengaytirish.
3. **Ijodiy ifoda va tahlil qilishga o'rgatish** – eshitgan musiqasi haqida erkin fikr bildirish, obrazni tasvirlash, rasm chizish yoki harakat orqali ifoda etishga sharoit yaratish.
4. **Qiziqishni uyg'otish va mustahkamlash** – musiqiy o'yinlar, rolli ijro va interaktiv uslublar orqali bolalarning darsga bo'lgan ishtiyoqini oshirish.
5. **Cholg'u asboblarni tanishtirish** – asar asosida turli cholg'ularni eshittirib, ularning tembrini, funksiyasini tushuntirish va esda qoldirish.
6. **Estetik tarbiya berish** – musiqiy asarlar orqali yaxshi va yomon obrazlarni ajratish, jasorat, do'stlik, mehr kabi tushunchalarni bolalarga singdirish.
7. **Kasbga yo'naltirish** – san'atga layoqatli o'quvchilarni erta aniqlash, ularni musiqa maktablari yoki maxsus to'garaklarga yo'naltirish.

"Petya va Bo'ri" kabi musiqiy ertaklar orqali bolalarda musiqaga bo'lgan tabiiy qiziqish uyg'onadi, ularning eshitish, tahlil qilish va obrazni his qilish ko'nikmalari shakllanadi. Asardagi har bir cholg'u personaj sifatida ishtirok etgani bois, bolalar cholg'ularni ajratib olishni o'rganadi, bu esa ularni musiqa dunyosiga yaqinlashtiradi. Pedagog bu asar vositasida nafaqat musiqa o'rgatadi, balki bolani ijodiy va estetik jihatdan boyitadi, ularning hayotga badiiy nigoh bilan qarashlariga turtki beradi. Shu jihatdan "Petya va Bo'ri" musiqiy ertagini dars jarayonida, to'garak mashg'ulotlarida yoki ochiq saboqlarda foydalanish — bolalar musiqiy madaniyatini shakllantirishda eng samarali vositalardan biridir. Xulosa qilib aytganda, musiqa o'qituvchisi bugungi ta'lim tizimida oddiy o'rgatuvchi emas, balki bolalarda san'atga mehr uyg'otuvchi, musiqiy tafakkurni shakllantiruvchi va ijodiy rivojlanishga yo'l ochuvchi muhim pedagogik shaxsdir. Shu bois, bunday o'qituvchining har bir darsi – bu nafaqat musiqa sabog'i, balki estetik dunyoqarashni tarbiyalovchi hayot maktabi bo'lib xizmat qiladi.

References:

Используемая литература:
Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sergey Prokofyev .“Petya va Bo’ri” asari 1936-yil.
2. Kobilova, Ezozkhon Bakirovna. "Classical music and youth education." Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 12.9 (2022): 126-130.
3. Qobilova, E. "FORMING A SENSE OF INTERNATIONALITY IN STUDENTS THROUGH THE TRADITIONAL MUSIC OF AZERBAIJAN." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.10 (2023): 127-132.
4. Azizkhonova, M., and E. Qobilova. "IMPORTANCE OF MUSIC EDUCATION IN FORMING YOUTH'S MUSICAL CULTURE AND SPIRITUALITY." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 51-57.
5. Kabilova, E. B. "FORMING A SENSE OF PATRIOTISM IN STUDENTS THROUGH THE LIFE AND WORK OF COMPOSER DONI ZAKIROV." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 10.10 (2023): 68-74.
6. Qabilova, E. "FORMING A SENSE OF INTERNATIONALITY IN STUDENTS THROUGH THE TRADITIONAL MUSIC OF AZERBAIJAN." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.10 (2023): 127-132.
7. QOBILOVA, E'ZOZXON. "Forming A Sense Of Love For The Profession By Teaching Labor Songs To 4th Class Students In Music Culture Lessons." Journal of Positive School Psychology 7.2 (2023).
8. E.Qobilova Developing methodological competence in future music teachers. Qo'qon DPI. Scientific Reports 2024 Issue 3, page 722
9. E'zozxon Qobilova THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF COOPERATION BETWEEN SCHOOL AND FAMILY IN SHAPING MUSICAL CULTURE AMONG YOUTH. International Journal of Pedagogics.(ISSN – 2771-2281) VOLUME 04 ISSUE 10 PAGES: 162-166
10. Qobilova, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MUSIC TEACHING IN EDUCATION. QO'QON UNIVERSITY NEWSLETTER, 12, 99–100. <https://doi.org/10.54613/ku.v12i.999>
11. E.Qobilova.Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish. Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024 3-son 722-bet.SAN'ATSHUNOSLIK (MUSIQA, TASVIRIY SAN'AT)Orcid: 0009-0001-1275-3080
12. E.Qobilova Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari .darslik Tamaddun-2023yil
13. E.Qobilova .Yoshlarda musiqiy madaniyatni shakllantirishda maktab va oila hamkorligining tarbiyaviy ahamiyati. Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024 4-son 383-bet SAN'ATSHUNOSLIK (MUSIQA, TASVIRIY SAN'AT)